

XI. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI



Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilning 1 iyul holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 44 592 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 33 787 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 75,8 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (51,6 %), savdo (15,4 %), sanoat (9,5 %) va qurilish (5,0 %) sohalariga to'g'ri keladi.



Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlar sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (2022 yil 1 iyul holatiga)

	<i>Ro'yxatga olangan</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotgan</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>
Jami	44 592	100,0	33 787	100,0

shu jumladan:

qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	22 989	51,6	13 563	40,1
sanoat	4 248	9,5	3 888	11,5
qurilish	2 215	5,0	2 122	6,3
savdo	6 849	15,4	6 348	18,8
tashish va saqlash	642	1,4	605	1,8
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 631	3,7	1 512	4,5
axborot va aloqa	277	0,6	249	0,7
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	359	0,8	343	1,0
boshqa faoliyat turlari	5 382	12,1	5 157	15,3

Korxona va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilning 1 iyul holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 26 337 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 24 578 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 93,3 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi, savdo (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (26,0 %), sanoat (16,1 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (18,0 %) va qurilish (8,4 %) sohalariga to'g'ri keladi.



**Jizzax viloyatidagi korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
(2022 yil 1 iyul holatiga fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)**

	<i>Ro'yxatga olinganlar</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotganlar</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>
Jami	26 337	100,0	24 578	100,0

shu jumladan:

qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4 734	18,0	4 354	17,7
sanoat	4 248	16,1	3 888	15,8
qurilish	2 215	8,4	2 122	8,6
savdo	6 849	26,0	6 348	25,8
tashish va saqlash	642	2,4	605	2,5
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 631	6,2	1 512	6,2
axborot va aloqa	277	1,1	249	1,0
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	359	1,4	343	1,4
boshqa faoliyat turlari	5 382	20,4	5 157	21,0



**Jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning
hududlar bo‘yicha taqsimlanishi
(2022 yil 1 iyul holatiga, birlik)**

*2022 yil
1 iyul holatiga
ro‘yxatga
olinganlar soni*

*shuningdek, 2022 yil yanvar-iyun
oylari davomida:*

*yangi tashkil
etilganlar*

tugatilganlar

Jizzax viloyati	44 592	2 790	529
------------------------	---------------	--------------	------------

shahar:

Jizzax	7 435	611	142
--------	-------	-----	-----

tumanlar:

Arnasoy	2 570	90	15
Baxmal	3 787	211	38
G‘allaorol	5 081	276	52
Sharof Rashidov	6 102	337	36
Do‘stlik	2 139	241	31
Zomin	4 197	246	48
Zarbdor	3 596	165	61
Zafarobod	1 986	87	6
Mirzacho‘l	2 211	123	17
Paxtakor	2 167	129	18
Forish	2 408	196	61
Yangiobod	913	78	4

2022 yilning yanvar-iyun oylarida jami 2 790 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatga olingan (shundan kichik biznes sub’yektlari – 2 685 ta). Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo‘yicha ro‘yxatga olingan jami korxona va tashkilotlarning 611 tasi, yoki 21,9 %) hamda Sharof Rashidov (337 tasi, yoki 12,1 %) va G‘allaorol (276 tasi, yoki 9,9 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.



**Ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarni hududlar
bo‘yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz, birlik)

**2022 yil
1 iyul holatiga
ro‘yxatga
olinganlar**

**shuningdek, 2022 yil yanvar-iyun
oylari davomida:**

**yangi tashkil
topganlar**

tugatilganlar

Jizzax viloyati	26 337	2 712	411
------------------------	---------------	--------------	------------

shahar:

Jizzax	7 360	611	142
---------------	--------------	------------	------------

tumanlar:


Arnasoy	908	88	13
Baxmal	1 716	208	20
G‘allaorol	2 330	274	40
Sharof Rashidov	3 812	328	32
Do‘slik	1 243	229	29
Zomin	2 123	232	22
Zarbdor	1 327	150	24
Zafarobod	798	82	5
Mirzacho‘l	1 034	110	15
Paxtakor	1 232	127	7
Forish	1 825	195	58
Yangiobod	629	78	4

2022 yilning yanvar-iyun oylarida (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) jami – 2 712 ta yangi korxona va tashkilotlar ro‘yxatga olingan (shundan kichik biznes sub’yektlari – 2607 ta). Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo‘yicha ro‘yxatga olingan jami korxona va tashkilotlarning 611 tasi, yoki 22,5 %), Sharof Rashidov (328 tasi, yoki 12,1 %) va G‘allaorol (274 tasi, yoki 10,1 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

2022 yil 1 iyul holatiga – 22 981 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar ro‘yxatga olingan bo‘lib, shundan xususiy korxonalar – 4 700 ta, oilaviy korxonalar – 2 232 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar – 15 564 ta, aksionerlik jamiyatlari – 20 tani tashkil etadi.



Ro‘yxatga olingan tijorat korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllari bo‘yicha soni
(fermer va dehaon xo‘jaliklarisiz, birlikda)




2022 yilning yanvar–iyun oylarida (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) jami – 2 712 ta yangi korxona va tashkilotlar ro‘yxatga olingan (shundan kichik biznes sub’yeqtisi – 2 607 ta). Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo‘yicha ro‘yxatga olingan jami korxona va tashkilotlarning 611 tasi, yoki 22,5 %), Sharof Rashidov (328 tasi, yoki 12,1 %) va G‘allaorol (274 tasi, yoki 10,1 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlarning 30,1 foizi savdo, 26,3 foizi qishloq va o‘rmon baliqchlik xo‘jaligi va 18,9 foizi sanoat sohalariga to‘g‘ri keladi.

Hisobot davrida 411 ta korxona va tashkilotlar faoliyati tugatilgan.

Xorijiy kapitali ishtirokidagi korxonalar. 2022 yil 1 iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorij kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 212 tani tashkil etdi.

2022 yilning 1 iyul holatiga xorij mamlakatlar rezidentlari kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 212 tani tashkil etdi. Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 32 ta, Turkiya Respublikasi 39 ta, Rossiya Federatsiyasi 21 ta, Afg'oniston 6 ta, Angilya Buyuk Britaniya 11 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 103 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 137 tasi qo'shma korxonalar, 75 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

2022-2021 yillar yanvar-iyun oylari holatiga xorij mamlakatlar rezidentlari kapitali ishtirokida ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni – 5 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26,3 foizga kamayishi kuzatildi. Bunda, Turkiya Respublikasi – 2 ta, Angilya Buyuk Britaniya – 1 ta, Rossiya Federatsiyasi – 1 ta. Qolaversa boshqa davatlarning rezidentlari kapitali ishtirokida 1 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar
(2022 yil 1 iyul holatiga, birlikda)

2022 yil
1 iyul holatiga
faoliyat
ko'rsatayotganlar soni

shundan

*qo'shma
korxonalar*

*xorijiy
korxonalar*

Jizzax viloyati

212

137

75

shahar:

Jizzax	66	43	23
--------	----	----	----

tumanlar:

Arnasoy	8	5	3
Baxmal	10	7	3
G'allaorol	19	12	7
Sharof Rashidov	15	10	5
Do'stlik	7	4	3
Zomin	15	8	7
Zarbdor	4	3	1
Zafarobod	10	3	7
Mirzacho'l	5	2	3
Paxtakor	8	7	1
Forish	32	26	6
Yangiobod	13	7	6

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Jizzax shahrida 66 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 100,0 %), Forish tumanida 32 ta (100,0 %), G'allaorol tumanida 19 ta (100,0 %), Zomin tumanida 15 ta (100,0 %), Sharof Rashidov tumanida 15 ta (100,0 %), Yangiobod tumanida 13 ta (100,0 %) hamda Baxmal tumanlarida 10 ta (90,9 %) ni tashkil etadi.



**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi
(2022 yil 1 iyul holatiga)**

	<i>Korxonalar soni, birlik</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
--	------------------------------------	----------------------------------

Jami	212	100,0
-------------	------------	--------------

shu jumladan:

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	36	17,0
Sanoat	118	55,7
Qurilish	12	5,7
Savdo	23	10,8
Tashish va saqlash	5	2,4
Yashash va ovqatlanish	2	0,9
Axborot va aloqa	3	1,4
Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	2	0,9
Boshqa faoliyat turlari	11	5,2


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida xorij kapitali ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan 212 ta korxonaning 118 tasi (55,7 %) sanoat, 36 tasi (17,0 %) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, 23 tasi (10,8 %) savdo, 12 tasi (5,7 %) qurilish, 2 tasi (0,9 %) yashash va ovqatlanish, 5 tasi (2,4 %) tashish va saqlash, 3 tasi (1,4 %) axborot va aloqa, 2 tasi (0,9 %) sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish hamda 11 % tasi (5,2 %) boshqa sohasiga to‘g‘ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar

2022 yil 1 iyul holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 21246 tani tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich 2021 yil 1 iyul holatiga nisbatan 110,0 foizga oshgan. Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya’ni 6190 tasi (29,1 %) Jizzax shahriga, 3267 tasi (15,4 %) Sharof Rashidov, 1858 tasi (8,7 %) G‘allaorol va 1695 tasi (8,0 %) Zomin tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.




Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
hududlar kesimidagi taqsimoti, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 21 246 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 6 339 tasi (29,8 %) savdo, 3 858 tasi (18,2 %) sanoat, 4 312 tasi (20,3 %) qishloq, o‘rmon va baliqchlik xo‘jaligi, 2 115 tasi (10,0 %) qurilishda, 1508 tasi (7,1 %) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi, 602 tasi (2,8 %) tashish va saqlash, 232 tasi (1,1 %) axborot va aloqa sohasi, 253 tasi (1,2 %) sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek 2 027 tasi (9,5 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat tarmoqlariga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa sohalariga to‘g‘ri keladi.



**Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonining iqtisodiy faoliyati turlari bo‘yicha taqsimoti, % da
(dexqon va fermer xo‘jaliklarisiz)**



2022 yilning yanvar–iyun oylarida 2 607 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2021 yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 106,7 foizni tashkil qildi. Eng ko‘p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Jizzax shahrida (578 ta), Sharof Rashidov (317 ta), G‘allaorol (270 ta) va Zomin (223 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Yangiobod (72 ta), Zafarobod (78 ta) hamda Arnasoy (82 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni taqqoslanganida eng ko‘pi savdo (816 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchlik xo‘jaligi (714 ta), sanoat (513 ta), qurilish (116 ta) va yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (144 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘satish (32 ta), tashish va saqlash (27 ta) hamda axborot va aloqa (44 ta) sohalari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2022 yilning 1 iyul holatiga 2 232 tani tashkil etdi, ulardan 2020 tasi yoki 90,5 foizi faoliyat yuritmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarining 832 tasi yoki 41,2 foizi sanoat, 455 tasi yoki 22,5 foizi savdo, 304 tasi yoki 15,0 foizi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 278 tasi yoki 18,8 foizi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 11 tasi yoki 0,5 foizi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 9 tasi yoki 0,4 foizi qurilish, 8 tasi yoki 0,4 foizi axborot va aloqa, 1 taga tashish va saqlash hamda 122 tasi yoki 6,0 foizi boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri keladi.



Xususiy korxonalar soni
(2022 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xususiy korxonalar soni **2022 yil 1 iyul** holatiga ko'ra 4700 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1,1 taga yoki 93,5 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 4 285 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1,1 taga yoki 93,6 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

2022 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 285 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1,6 taga yoki 63,2 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(2022 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022 yil 1 iyul holatiga ko'ra 15 564 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 194 taga yoki 116,4 foizga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 14 574 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1843 taga yoki 114,5 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

2022 yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 819 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 taga yoki 100,1 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

